

O‘ZBEKISTONDA O‘LKASHUNOSLIK ATLASLARINI YARATISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

**Abdumo‘minov Bahodir Odinayevich - Termiz davlat universiteti Tabiiy
fanlar fakulteti Geografiya kafedrasida o‘qituvchisi**

**Olimqulov Yashnar Maxmadamin o‘g‘li - Termiz davlat universiteti
Geografiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda o‘lkashunoslik atlaslarini yaratish jarayonida xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Jumladan, Germaniya, Rossiya, AQSh hamda Xitoy kabi davlatlarda hududiy va o‘lkashunoslik atlaslarini yaratishning ilmiy-metodik asoslari o‘rganiladi. Ushbu mamlakatlarda atlaslar tuzishda geoinformatsion texnologiyalar (GAT), vizualizatsiya va ma’lumotlarni integratsiyalash usullarining qo‘llanishi yoritiladi. Tadqiqotda xorijiy tajribaning ilg‘or jihatlari umumlashtirilib, ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari baholanadi. Shuningdek, milliy o‘lkashunoslik atlaslarini yaratishda hududiy xususiyatlar, tarixiy-madaniy meros va tabiiy-geografik omillarni kompleks aks ettirish zaruriyati asoslab beriladi. Maqola natijalari respublikada o‘lkashunoslik atlaslarini takomillashtirish, ularning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish va ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘lkashunoslik atlaslari, kartografiya, geoinformatsion texnologiyalar (GAT), tematik xaritalash, hududiy tahlil, xorijiy tajriba, atlas yaratish metodologiyasi, kompleks kartografik yondashuv, vizualizatsiya, ma’lumotlar integratsiyasi, O‘zbekiston.

FOREIGN EXPERIENCE IN THE CREATION OF LOCAL HISTORY ATLASES IN UZBEKISTAN

*Abdumo‘minov Bahodir Odinayevich - Lecturer of the Department of
Geography, Faculty of Natural Sciences, Termez State University*
*Olimqulov Yashnar Maxmadamin o‘g‘li - 2nd-year Master’s Student in
Geography at Termez State University*

Abstract: This article analyzes the issues of applying foreign experience in the creation of local history atlases in Uzbekistan. In particular, the scientific and methodological foundations of developing regional and local history atlases in countries such as Germany, Russia, the USA, and China are examined. The study highlights the use of Geographic Information Technologies (GIS), visualization methods, and data integration techniques in atlas compilation in these countries. Advanced aspects of foreign experience are generalized, and the possibilities of their application under the conditions of Uzbekistan are evaluated. The article also substantiates the necessity of comprehensively reflecting territorial characteristics, historical and cultural heritage, and natural-geographical factors in the creation of national local history atlases. The results of the study contribute to improving local history atlases in the republic, increasing their scientific and practical significance, and effectively integrating them into the educational process.

Keywords: Local history atlas, cartography, Geographic Information Systems (GIS), thematic mapping, territorial analysis, foreign experience, atlas creation methodology, комплексиве cartographic approach, visualization, data integration, Uzbekistan.


Kirish: O'lkashunoslik atlaslarini yaratish jarayoni nafaqat hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettirish, balki uni ilmiy asosda tizimlashtirish, turli sohalararo aloqalarni ko'rsatib berishda muhim vosita hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda atlaschilik ishlari davlat siyosati darajasida yo'lga qo'yilgan bo'lib, ilmiy markazlar, universitetlar va maxsus kartografik institutlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Asosiy qism: Xorijiy atlaschilik maktablarida o'lkashunoslik atlaslari turlicha yondashuvlar asosida yaratiladi va bu milliy atlaschilik uchun qimmatli tajriba bo'lib xizmat qiladi. O'lkashunoslik atlaslarini yaratishda xorijiy davlatlar tajribasida ko'radigan bo'lsak Rossiya davlatida Rossiya kartografiya maktabi o'lkashunoslik atlaslari yaratishda yetakchi hisoblanadi. Rossiyada "Bol'shoy Sovetskiy Atlas Mira" (1954–1969) hamda "Rossiya Milliy atlas" (2004–2008)

yaratilgan kompleks xarakterga ega bo‘lib, tabiiy resurslar, aholi, iqtisodiyot, ekologiya, tarixiy-geografik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ularning asosiy xususiyati — ko‘p bosqichli tizimlilik: respublika, viloyat va rayon darajasida atlaslar ishlab chiqiladi.

1-rasm

Bol’shoy Sovetskiy Atlas Mira (1954–1969)



Manba:

<https://www.davidrumsey.com/luna/servlet/detail/RUMSEY~8~1~346099~90128231:--Atlas-Mira--World-atl>

Mazmuni — tabiiy geografik (relyef, iqlim), iqtisodiy (sanoat, transport), ijtimoiy (aholi, ta’lim, sog‘liqni saqlash) va madaniy xaritalarni qamrab oladi.

Rossiya atlaschilik maktabi dunyoda eng yirik va an’anaviy ilmiy maktablardan biridir. Rossiya atlaslarida tabiiy, iqtisodiy, demografik va madaniy ma’lumotlar bir butun tizim sifatida jamlangan. Rossiyada atlaschilik ishlari asosan Rossiya Fanlar akademiyasi va Kartografiya institutlari tomonidan olib boriladi.



AQSh tajribasi

AQShda atlaschilikning rivojlanishi bevosita texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib atlaschilik maktabida o‘lkashunoslik atlaslari ko‘proq ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishda rivojlangan. National Geographic Society muntazam ravishda atlaslar yaratadi va ular nafaqat ilmiy balki ta’limiy-ma’rifiy maqsadlarga xizmat qiladi.

AQShda atlaslar ko‘pincha GIS (Geographic Information Systems) asosida tuziladi, ya’ni interaktiv elektron atlaslar keng qo‘llanadi davlat miqyosida US Geological Survey (USGS) kartografik ishlarni muvofiqlashtiradi.

2-rasm

National Geographic Atlas of the World



Manba: <https://www.amazon.com/National-Geographic-Atlas-World-Eighth/dp/0792275438>

“National Geographic Atlas of the World” va turli shtatlarning mintaqaviy atlaslari buning yorqin misolidir ularning mazmunida iqtisodiyot, migratsiya, urbanizatsiya, ekologik muammolar asosiy o‘rinda turadi atlaslarning turi ko‘pincha raqamli va interaktiv shaklda ishlab chiqiladi.



Germaniya tajribasi

Germaniya atlaschilikda klassik ilmiy yondashuv va aniq metodologiyasi bilan ajralib turadi. Germaniya atlaschilik maktabi asosan tematik va tarixiy atlaslarga ixtisoslashgan. “Deutscher Schulatlas” (Nemis maktab atlas) va “Atlas der DDR” (GDR atlas) misolida ko‘rish mumkinki, ular. Ta’lim maqsadlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib atlaslarning mazmuni aniq va sodda shaklda, ilmiy asoslangan tarzda berilgan eng mashhur atlaslardan biri – “Andrees Allgemeiner Handatlas”

bo‘lib, u 19–20 asrlarda keng qo‘llanilgan hozirgi kunda Germaniyada hududiy atlaslar, maktab atlaslari va tematik (ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy) atlaslar keng tarqalgan.

3-rasm

Andrees Allgemeiner Handatlas



Manba:<https://rarebooks.biblhertz.it/en/ukraine/no-squirrels-in-crimea/richard-andree-allgemeiner-handatlas-in-hundertzwanzig-kartenseiten-nebst-alphabetischem-namensverzeichnis/>

Atlas yaratishda universitet kartografiya markazlari va Springer, Justus Perthes kabi nashriyotlar yetakchi hisoblanadi asosan tarixiy rivojlanish, milliy madaniyat va urbanizatsiya jarayonlari chuqur yoritilgan.



Xitoy tajribasi

Xitoyda oxirgi o‘n yilliklarda atlaschilik davlat darajasida rivojlanmoqda asosan 1990-yillardan boshlab “Xitoy Milliy atlas” bosqichma-bosqich yaratila boshladi Xitoy atlaslari “China National Atlas” va “Provinsial Atlaslar” keng ko‘lamda yaratilgan bo‘lib ularning mazmuni milliy va mintaqaviy miqyosda tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko‘rsatkichlarni qamrab oladi Xitoy atlaslari ko‘pincha hududiy rivojlanish, resurslardan foydalanish va aholi siyosatiga qaratilgan. Xitoy tajribasining muhim jihati — elektron atlaslar va GIS

texnologiyalaridan keng foydalanishdir. Elektron atlaslar va raqamli kartografiya sohasida bugungi kunda Xitoy GIS dasturlarni keng tatbiq etmoqda.

4-rasm

Xitoy China National Atlas



Manba: <https://www.abebooks.co.uk/first-edition/National-Economic-Atlas-China-Series-Oxford/32110093294/bd>

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘lkashunoslik atlaslarini yaratishda. Rossiyada – ilmiy maktab va an’anaviy yondashuvlar, AQShda – innovatsion texnologiyalar va interaktivlik.

Germaniyada – metodologik aniqlik va ilmiy nashriyotlar, Xitoyda – davlat siyosati va hududiy rivojlanish ehtiyojlari ustuvor yo‘nalish bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu tajribalarni o‘rganish O‘zbekistonda atlaschilikni rivojlantirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Atlaslar hududning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini umumlashtiruvchi, ilmiy asoslangan kartografik manba hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy kartografiya maktabi shakllandi va o‘lkashunoslik atlaslarini yaratish jarayonida mahalliy ehtiyojlar, ilmiy izlanishlar va amaliy

talablar asos qilib olindi. Xorijiy davlatlar (Rossiya, AQSh, Germaniya, Xitoy va boshqalar) tajribasi esa uzoq yillik ilmiy maktablar va ilg'or texnologiyalarga asoslangan.

O'zbekiston o'lkashunoslik atlaslarining xususiyatlari asosan hududiy o'rganishga qaratilgan bo'lib, tabiiy-geografik, iqtisodiy va ijtimoiy xaritalar orqali viloyat va respublika darajasida kompleks tasvir yaratiladi. Milliy va mahalliy ehtiyojlar ustuvor hisoblanadi (qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, demografiya, tarixiy-madaniy obidalar va h.k.) atlaslar ko'pincha bosma shaklda yaratilgan, oxirgi yillarda elektron variantlari ham ishlab chiqilmoqda.

Xorijiy atlaslarning asosiy xususiyatlari Rossiya atlaslari – ko'p jildli, kompleks va uzoq muddatli ilmiy izlanishlar mahsuli, davlat miqyosida yaratilgan bo'lib AQSh atlaslari – interaktiv, raqamli va keng auditoriya (ilmiy, ta'limiy, ma'rifiy) uchun mo'ljallangandir.

Germaniya atlaslari esa – metodologik aniqligi, yuqori aniqlikdagi xaritalari va ilmiy nashriyotlar (Springer, Perthes) orqali keng tarqalishi bilan mashhur hisoblanadi

Xitoy atlaslari – davlat siyosati asosida yaratiladi, hududiy rivojlanish, resurslardan foydalanish va ekologik muammolarni yoritishga yo'naltirilgandir.

O'zbekiston atlaslari milliy ehtiyojlarni qondirish, hududiy xususiyatlarni chuqur yoritish va ta'limiy jarayonlarda foydalanish uchun muhim. Xorijiy atlaslar esa keng qamrovli, innovatsion texnologiyalarga asoslangan va ilmiy-amaliy ahamiyati yuqori. O'zbekiston atlaschiligini rivojlantirishda xorijiy tajribani o'rganish, xususan GIS va elektron atlaslarni yaratishda AQSh hamda Xitoy tajribasidan, metodologik jihatdan esa Rossiya va Germaniya tajribasidan foydalanish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islomov U., Qodirov R. Kartografiya va geoinformatika asoslari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.
2. Berlyant A. M. Kartovedenie. – Moskva: Aspekt Press, 2002.

3. National Geographic Atlas of the World. – Washington, D.C.: National Geographic Society, 2019.
4. Perthes J. Handatlas. – Gotha, 1890.
5. Chinese Academy of Sciences. National Atlas of China. – Beijing: Science Press, 2000.